

O'zbekiston— kelajagi buyuk davlat

Gazeta 1969-yil 1-iyuldan chiqa boshlagan
Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligining nashri

2025-yil 27-fevral
Payshanba № 4 (4500)



Вилоят Ҳокими билан учрашувлар

ўтказди. Унда Халқ қабулхона-лари орқали вилоят раҳбарии-нинг қабулини сўраган ҳамда турли масалаларда мурожаат қилган 156 нафар фуқаронини муаммоси тингланди.


Термиз шаҳри ва туманлар студиялари орқали фуқаро-ларнинг даволаниш, уй-жой олиш, қуриш ёки таъмирлаш учун субсидия ажратиш, йўлларни таъмирлаш, ишга жойлаштиш, ўзини ўзи банд қилиш учун жиҳоз ажратиш, электр энергия ва ичимлик суви таъминоти, кадастр, тиб-биёт ва таълим тизимидаги муаммолар ҳамда бошқа маса-лалардаги 187 та мурожаати тингланди. Қабул давомида мурожаатларнинг 39 таси ижо-бий ҳал этилди. Ижроси муд-дат ва қўшимча ўрганиш талаб қиладиган мурожаатлар масъ-

x x x

Сурхондарё вилояти Ҳоки-ми Улуғбек Қосимов бошчили-гида вилоят сектор раҳбарла-ри иштирокида Музрабат ту-мани ҳокимлигида ўтказилган қабулда ҳудудий студиялар орқали 52 нафар тadbиркор-нинг кредит ажратиш, олинган кредит муддатини узайтириш, солиқ, субсидия, ундирув, ка-дастр ва ер масалалари,

**Сурхондарё вилоят
ҳокимлиги Матбуот хизмати.**

САЙЁР ҚАБУЛ



**Музработ тумани
ҳокимлиги
Ахборот хизмати.**

Маҳалла банкирлари

**улар ҳар бир оилга тайёр лойиҳалар
ёки бизнес режалар таклиф қилади**

Қайд этилишича, 208 та ту-
ман ва шаҳарлар ҳокимлари
ҳамда банкарлар раҳбарлари то-
монидан аҳоли бандлигини
таъминлаш ва даромадини
ошириш бўйича ҳамкорлик
шартномалари имзоланди. Ҳар
бир маҳалла бўйича мақсадли
кўрсаткичлар белгиланди.

Демак, бу йил ҳам умуммиллий ҳаракат изчил давом эттирилади. Одамларни ишга ва даромадли қилиш сиёсати янада юқори тезликда, янада самарадор ечимлар орқали халқ орасига чуқур кириб боради. Туман банклари филиалларида “маҳаллабай” ишлаш бўлимлари ташкил этилиб, уларга маҳалла банкчилари тайинланади. Эътибор берамиз, бу йўналишда янги тизим пайдо бўляпти: “Маҳалла банкчилари” ва “Маҳалла лойиҳаси”.

(Давоми 2-бетда.)



Ижодий тадбир

Шу муносабат билан ойлик дастури доирасида подполковник Ў.Шукуров раҳбарлик қилаётган туман ички ишлар бўлимида Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, халқаро «Ол-

Учрашувда Сафар Омондастлаб, улуғ бобокалонимиз, ўзбек адабий тилининг асосчиси, сўз мулкининг султони Алишер Навоийнинг ижодий фаолияти, унинг жаҳон адабиётида тугган ўрни ҳақида батафсил тўхталиб, назмий асарларидан намуналар келтирди.

Учрашув жараёнида шоир Сафар Омон ҳуқуқ-тартибот ҳодимларига ўз ижодий фаолияти, нашр этилган китоблари ҳақида ҳам сўзлади ва қаламига мансуб ашъорлардан ўқиб берди. Таъдир ниҳоясида учрашув қатнашчилари ўзларини қизиқтирган саволлар билан шоирга муурожаат қилиб, қониқарли жавоблар олдилар. Ижодий учрашув барчада ёрқин таассурот қолдирди.

А.ЙЎЛДОШЕВ.

Маҳаллаларда хавфсиз муҳит яратилади

Қарорга мувофиқ, вилоятлар марказлари ва криминал ген вазият оғир туман (шаҳар)лар маҳаллаларида профилактика кичик инспектори фаолияти йўлга қўйилади. Ички ишлар органларида миграцион профилактика бўлинмала-

маъмурий ҳуқуқбузарлик
“Э-маъмурий иш”да рўйхат-
дан ўтганда ҳуқуқбузар
(жабрланувчи)ларга автома-
тик ижтимоий профилактика-
ни амалга ошириш бўйича ҳу-
лоса ижрога қаратилади;

ган “маҳалла еттилиги” ва сек-
тор раҳбарлари ҳокимликлар
томонидан маҳаллий бюджет
маблағлари ҳисобидан
қўшимча моддий рағбатлан-
тирилади.

А. ЮНУСОВ,

**Музработ тумани адлия
бўлими юридик хизмат
кўрсатиш маркази бошлиғи.**

**Халқ депутатлари
туман Кенгаши сессияси**

жисмоний шахсларнинг қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерларига 2025 йил учун ер солиғи ставкаларини белгилаш ҳақида” 2025 йил 29 январдаги қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” туман солиқ инспекцияси

бажарилиши борасида амалга оширилган ишлар ҳамда касалликлар профилактикасининг ҳолати, соғлом турмуш тарзини ва тўғри овқатланишни шакллантириш борасида 2024 йил давомида амалга оширилган ишлар тўғрисида” туман тиббиёт бирлашмаси бошлиғи ўринбосари Олим Жўраев маъруза қилди.

Шу билан халқ депутатлари
туман Кенгашининг бешинчи
сессияси ўз ишини якунлади.

Маҳалла банкирлари улар ҳар бир оиллага тайёр лойиҳалар ёки бизнес режалар таклиф қилади

(Бошланиши 1-бетда.)
Хўш, “Маҳалла банкирлари” қандай тизим?
Маҳалла банкирлари банкларнинг энг куйи бўғини ҳисобланади. Яъни маҳалла даражасига тушиб, одамларнинг даромадини оширадиган тизим. Маҳалла банкирларининг энг катта вазифаси маҳалланинг бизнес имкониятларини ўрганиб, одамларнинг гоёларини, лойиҳаларга айлантиришдир. Маҳалла банкирлари “хонадонбай” ишлаб, ҳар бир оиллага тайёр лойиҳалар ёки бизнес режалар таклиф қилади. Лойиҳанинг барча занжирда – кредит олиш, бизнес очиш, махсулот сотиш жараёнларида аҳолига ҳамроҳлик қилади.
Содда қилиб айтганда, нолдан даромадга киргунича ўша лойиҳани қўллаб-қувватлайди. Маҳалла агентлари билан биргаликда шакллантирилган рўйхат асосида одамларни даромадли меҳнатга банд қилишга ўз ҳисасини қўшади. Бунинг учун барча молиявий инструментлар мавжуд.
Худудий банклар ҳамда туман ҳокимлари аҳолини тайёр бизнес лойиҳалари билан таништириб боради, уларни амалга ошириш кўникмалари ўргатилади. “online-mahalla.uz”, “bank-kredit.uz” ва “soliq.uz” ахборот тизимлари интеграция қилиниб, масъулларга юклатилган вазифалар ижроси кунлик таҳлил қилиб борилади. Фаолият қоникарсиз бўлган раҳбарларга чора қўрилади.
“Маҳалла банкирлари” тизими орқали 1 миллион 400 минг киши доимий иш билан таъминланади. Яна 2 миллион 100 минг аҳолини тадбиркорликка жалб этиш ҳисобитиб қилинган. Бу борада ўзига хос молиявий инструментлар ҳам жорий этиляпти. 1 миллиард доллар йўналтириляётган “Маҳалла лойиҳаси” дастури ана шундай муҳим молия-

вий инструментлардан бири.
Дастурда оилавий тадбиркорлик дастурларида муваффақиятга эришган аҳолига узоқ мuddатга кўпроқ ҳажмда маблағ ажратилади. Қолаверса, ҳар бир маҳаллада камида 10 та хонадон учун “Лойиҳа пакети” етказиб берилади.
Таҳлилларга кўра, ушбу пакетлар орқали оилалар 60-70 миллион сўмдан кам бўлмаган йиллик даромадга эга бўлади. Яна бир маълумот, “Маҳалла лойиҳаси” дастурини Паркент тажрибаси мисолида айтиш мумкин. Бу тажриба Осиё тараққиёт банки ва Халқ банки ҳамкорлигида амалга оширилмоқда. Олдин оилавий тадбиркорлик дастурларида муваффақиятли ўтган аҳоли бу дастурга жалб қилинади ва уларга кўпроқ миқдорда, узоқ мuddатга кредит ажратилиши йўлга қўйилади.
Бугунги кунда бир қатор банклар тизимида маҳалла банкирлари фаолияти йўлга қўйилди. Хусусан, “Бизнесни ривожлантириш банки” Бош офисида алоҳида таркибий тузилма, вилоят филиалларида тегишли бўлимлар ҳамда туман филиалларида шуббалар фаолияти йўлга қўйилди. Банка бириктирилган 648 та маҳаллада аҳолини тадбиркорликка жалб этиш мақсадида 227 та маҳалла банкири ва ҳар бир маҳалла учун 648 та маҳалла ёрдамчи-агентлари жалб қилинмоқда.
Жумладан, бугунги кунда “Бизнесни ривожлантириш банки” томонидан 280 минг нафар аҳолини даромадли меҳнат билан таъминлаш, бунда 114 минг 685 нафар аҳолини доимий иш билан банд қилиш ва 165 минг 315 нафар аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш бўйича фаол ишлар олиб боришмоқда. Банка бириктирилган 648 та маҳаллада иқтисодий фаолликни ошириш, жумладан, аҳолини тадбиркорликка

жалб этиш, янги имкониятларни яратиш борасида ишлар ташкил этиш мақсадида 227 та маҳалла банкири ва ҳар бир маҳалла учун 648 та маҳалла ёрдамчи-агентлари жалб қилинмоқда. Айна пайтда маҳалла банкирлари ва ёрдамчи агентлар маҳалланинг бизнес имкониятларини ўрганиб, одамлар билан бевосита суҳбатлар ўтказиб, уларнинг гоёларини лойиҳаларга айлантирмоқда.
Хусусан, маҳалланинг бизнес имкониятларини ўрганиб, аҳолининг бизнес гоёлари асосида уларга тайёр лойиҳалар такдим этилмоқда. Аҳоли билан кредит олиш, қайтариш, бизнесни йўлга қўйиш ва маҳсулотини сотиш каби масалаларда мулоқотлар ўтказилиб, уларнинг молиявий саводхонлигини оширишга кўмаклашилмоқда. Шу билан бирга, банк тайёр бўлган лойиҳаларни ишга тушириш ва бизнесни йўлга қўйиш жараёнларида уларнинг энг ишончли ва яқин ҳамкорига айланмоқда.
Шу ўринда яна бир жиҳатга эътибор қаратмоқчимиз. Жорий йилда ҳар бир маҳаллада микролойиҳалар амалга оширилиши кўзда тутилмоқда. Яъни жами 9 минг 453 та маҳаллада умумий ҳисобда 40 тадан лойиҳа, 378 мингдан ортик микролойиҳалар амалга оширилади. Бунинг натижасида 757 мингдан зиёд аҳоли бандлиги таъминланади. Қолаверса, кичик ва ўрта бизнес ҳамда кичик ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш учун жорий йилда 120 триллион сўм миқдориди кредитлар йўналтирилади. Бу, йил давомида ажратиладиган кредитларнинг 40 фоизи шу соҳага йўналтирилади, дегани.
Бир сўз билан айтганда, 2025 йил бандликни таъминлаш ва камбағалликни камайтиришда ҳал қилувчи йил бўлади. Бу борада давлатимиз раҳбари томонидан янги тизим ва жуда катта миқдордаги молиявий ресурслар ажратилди. Энди жой-биркорликка жалб қилиш бўйича фаол ишлар олиб боришмоқда. Банка бириктирилган 648 та маҳаллада иқтисодий фаолликни ошириш, жумладан, аҳолини тадбиркорликка

Шахноза МАМАТУРОВА, ЎЗА мухбири.

Ўзбек Александрияси шахри

Тарих тилга кирганда...

(Бошланиши 1-бетда.)

Туманимиз худудидаги Кампиртепа қалъасида олиб борилган кўп йиллик археология-қидирув ишлари натижасида ёзма манбаларда қайд қилинган Оксдаги Александр шахри Кампиртепа ўрнида бўлганлиги тахмин қилинди. Бу борада Кампиртепадан Марказий Осиёда ягона бўлган Искандар тангасининг топиллиши муҳим аҳамиятга эга бўлди.
Сўнгги тадқиқотлар кўхна қалъа Кампиртепанинг ёшини аниқлаш имконини берди. Олимларнинг тахмин қилишича, Кампиртепанинг ёши миллоддан аввалги IV аср охири – III аср бошларига бориб тақалади. Шу билан бирга Кампиртепадан қўллаб топилган терракота ҳайкалчалар катта аҳамиятга эга бўлди. (Терракота итал terra-ер, тупроқ, cotta-қиздирилган) – тор маънода – лойдан ишланиб хумдонда пиширилган сирланмаган ва ранг берилмаган майда ҳайкалчалар; кенг маънода – лойдан тайёрланиб, махсус хумдонларда қиздирилган бадий ва амалий аҳамиятга эга сирланган сопол буюмлар (идишлар, кўза, ҳайкалча, ўйинчоқ, қошин ва б.) Уларни бошқа худудлардан топилган санъат намуналари билан қиёслаб ўрганиш бу ҳайкалчалар эллинизм тарихий-маданий доирасида бўлганлигини кўрсатди.
Академик Э.Твеладзе 2019 йил август ойларида “Ўзбекистон маданий мерос ҳафтидаги” доирасида бўлиб ўтган анжуманда Кампиртепа – Александр Македонскийнинг Оксдаги афсонавий Александар шахрининг айнан ўзи эканлигини мукаммал, ишончли далил, исботларга таянган ҳолда расман эълон қилди. Бу жаҳон жамоатчилиги ва тарих учун жуда катта янгилик бўлди.
Шу йили Британиянинг “The



Telegraph” нашрида Амударё ёқасида афсонавий Александр шахарчасининг очилиши бағишланган “Ўзбекистон Помпейи – сирлари” номли мақола босилиб чиқди. Мазкур мақола Буюк Британиядаги мамлакатимиз элчихонаси, Ўзбекистоннинг шу мамлакатдаги туризм бўйича элчиси Софи Ибботсон ва Ўзбекистон электрон ОАВ Миллий ассоциациясининг ўзаро ҳамкорлиги натижасида тайёрланган. Мақолада Ўзбекистон жануби – Сурхондарё вилояти худудидаги афсонавий Кампиртепа шахарчаси – Александр Македонскийнинг йўқоти қўйилган, эсдан чиқарилган, унутилган шахри қадимийлиги жиҳатидан Римнинг Помпей ёки Геркулон сингари эллинистик шаҳарларидан сира қолишмаслиги қайд этилган. Ўзбек Александрияси улардан фақат биргина хусусияти – деворга солинган расм ёки суратларнинг (фарск) учрамаганлиги, йўқлиги ва мавжуд эмаслиги билан фарқланади.
Шунингдек, мақолада вақт ўтиши, сув тошқинлари оқибатида Оксус (Амударё) ўзани ўзгарганлиги сабабли дарё порти йўқ бўлиб кетганлиги, II асрдаги кучли zilзила ва бошқа табиий офатлар туфайли шахар бир неча бор бузилиб ва яна қайта барпо этилганлиги, шахар археолог олим Э.Твеладзе томонидан 1972 йилда олиб борилган қазилма ишлари натижасида қайта очилганлиги ва бу қалъада юксак даражада ривожланган шахар қолдиқлари, мустаҳкам мудофаа истеҳкомлари аниқланганлиги таъкидланган.
Мақола муаллифи Александр Македонский томонидан қурилган 70 тадан кўпроқ шаҳарлар ичида Оксдаги Александр шахри алоҳида

ўринда туришига диққат-эътиборни қаратади. Қаерда Александр янги худудларни босиб олиб, ўзига тобе қилган бўлса, ўша ерда ҳеч қанча тенг-лаша олмайдиган ноёб манзилгоҳлар барпо этган. Чунончи, антик давр тарихчиси Птолемей ишларида Миср Александрияси ўша вақтнинг энг машҳур шахри сифатида шуҳрат қозonganлиги қайд этиб ўтилган. Птолемейнинг таъкидлашича, Оксдаги Александр шахри эса Сўғдиёнада қурилган. Бу мақола орқали бутун дунё жамоатчилиги яна бир маротаба мустақил Ўзбекистоннинг тарихчи олимлари томонидан очилган ва шу вақтгача анча баҳсларга сабаб бўлиб келаяётган янгилекдан хабардор бўлиш имкониятига эга бўлдилар.
Эндиликда Музравот туманидаги Кампиртепа тарихий қалъаси, яъни Окс Александрияси маҳаллий ва хорижий сайёҳлар учун энг қизиқарли зиёратгоҳга айланган. Шунинг учун ҳам сайёҳларга қулайлик яратиш мақсадида Термиз – Қоракамар автомобиль йўлининг Кампиртепа ёдгорлигига яқин бўйларига “Окс Александрияси археологик ёдгорлиги” деган лавҳа ўрнатилган. Катта йўл ёқаларига ям-яшил арча дарахтлари экилиб ободонлаштирилган, Қорасув дарёси устига ўрнатилган темир йўл кўприги ёнидан бошлаб Кампиртепа ёдгорлигигача бўлган автомобиль йўли асфальт қопламаси тўшалиб таъмирланган.
Хуллас, узоқ йиллар фанга номаълум бўлган антик давр, хусусан, Қушдан давр тарихи ва маданияти Ўзбекистон санъатшунослик экспедициясининг тадқиқотлари туфайли дунёга машҳур бўлди ҳамда тарих фанига улкан ҳисса бўлиб қўшилди.
Мақсуда ХУДОЙКУЛОВА, туман Ахборот-кутубхона маркази библиографи мутахассиси.

Xalqaro xotin-qizlar kuni oldidan Ustozlarga taʼzim

Muallim haqida soʻzim ushбудir, Muallim kamolot ichra koʻzgʻudir. **Abdulla ORIPOV.** Xalqimizda “Oʻgʻilning oʻqitsang, oʻzini oʻqitang, qizingni oʻqitsang, izingni oʻqitang”, degan hikmat bor. Bu juda toʻgʻri aytilgan, ibratli gapdir. Chunki kimki qizini oʻqitsa, u farzandlarini, nabiralari oʻqitadi.

Buni oʻz hayotim misolida koʻrsatishim mumkin. Mening buvijonim Asaxon aya maxsus maʼlumotlari boʻlmasa ham, sharoit taqozosi bilan, qishloqlarda “savodsizlikni tugatish” siyosati yuzasidan oʻtgan asrning 40-yillarida oʻqituvchi boʻlib faoliyat yuritganlar. Onam uzoq yillar boshlangʻich sinf oʻqituvchisi boʻlib, endigina maktab ostonasiga qadam qoʻygan bolalarga harf oʻrgatib, savodini chiqarib, ularga dunyoni tanitdilar.

Bolalik chogʻlarimni eslayman, har bir oʻquvchi uchun uning oldida “Kim boʻlsam ekan?” degan savol turadi. Bizning oilamiz farzandlari uchun, menimcha, bu savol koʻndalig boʻlmagan, chunki har birimiz uchun qalbmizda allaqachon buning javobi bor edi. Biz, opasingillar oʻqituvchi boʻlishni, buvimiz, onamiz singari kelajak avlodga taʼlim berishni istardik. Shu niyatimiz sabab, biz opasingillar oʻqidik, oʻqituvchi boʻldik. Qolaversa, dadajoni-mning ammalari va uch opasingillari va bir akalari ham pedagog. Men 2008-yildan beri tumanimizning 31- va 2010-yildan 20-umumtaʼlim maktabida boshlangʻich sinf oʻqituvchisi boʻlib ishlab kelmoqdaman. Bir kitobda oʻqigandim: “Ish ogʻir emas, ishlash muhiti ogʻir”, -deb. Ishlash muhiti, yaʼni ish joyi yaxshi

boʻlsa, odam charchamaydi, qilgan ishi kishiga zavq bagʻishlaydi. Bizning maktabimiz ham shunday. Juda ahil jamoa. Maktabimizda 397 nafar oʻquvchi taʼlim oladi. Direktorimiz - Zohid Oʻsarov rahbaligida yosh avlodga jami 42 nafar oʻqituvchilar taʼlim beradi.



Jumladan, ularning 24 nafarini xotin-qizlar tashkil qiladi. Oʻqituvchilarimizning aksariyati yuksak salohiyatli, oʻz kasbining, sohasining sir-asrorlarini juda yaxshi egallagan. Jamoamizni, ayniqsa, yoshi ulugʻ ustozlari juda hurmat qilaman. Ular bir-biridan yaxshi, hurmatli insonlar. Quyida ulardan ayrimlari haqida toʻxtalmoqchiman.
Xususan, Svetlana Jumayeva rus tili oʻqituvchisi. 1986-yildan buyon 20-umumtaʼlim maktabda ishlab kelmoqda. “Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi” - “Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqillikning 30 yilligi” koʻkrak nishonlari, 2022-yilda “Doʻstlik” ordeni bilan taqdirlangan. Oʻtgan yil boʻlib oʻtgan saylovda xalq deputatlari Muзrаbоt tumani Kengashi deputati etib saylangan. Gulshod Sariyeva 1989-yildan 2021-yilgacha shu maktabda ona tili va

adabiyot oʻqituvchisi boʻlib ishlagan. Zarifa Allazova 1986-yildan 2021-yilgacha boshlangʻich sinf oʻqituvchisi, maktab direktorining oʻquv ishlari boʻyicha oʻrinbosari lavozimida ishlagan. Raʼno Togʻaymurodova 1997-yildan 2010-yilga qadar boshlangʻich sinf oʻqituvchisi, 2011-yildan hozirgacha maktab psixologi vazifasida ishlab kelmoqda.

Men yoshi ulugʻ ustozlar bilan ishlab, ulardan koʻplab tajriba

oʻrganganman, malaka va mahoratimni oshirganman. Ular biz, yoshlardan maslahatlarini ayamasdan yordam berganlar.
Mana, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami ham yaqinlashib qoldi. Men bu bayram bilan maktabimizning barcha xotin-qizlarini tabriklayman! Ular eng avvalo, mustahkam sogʻliq, uzoq umr, mashaqqatli, lekin sharaflari faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman! Men bugun bu muqaddas dargohda sizlar bilan bir safda ishlar ekanman, chin qalbmizdan faxrlanaman, Sizlarning barchangizga bir shogird sifatida taʼzim qilaman!

Muhabbat SHOMURATOVA, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi talabasi.
Suratda: M.Shomuratova ustози S.Jumayeva (chapda) bilan.

Текиннинг тиканаги бор...

Энергия ресурсларидан самарали ва тежаб фойдаланиш ҳар жиҳатдан муҳим. Зеро, бу иқтисодиёт, экология ва албатта аҳоли турмуш фаровонлигини таъминлаш билан боғлиқ масала саналади. Шундай бўлсада, айрим ҳолатларда энергетик қувватлардан ноқонуний фойдаланиш ҳолатлари ҳам учраб туради.
Мамлакатимизда тадбиркорлик фаолияти учун кенг имкониятлар яратилган. Бундан тўғри ва самарали фойдаланаётган

юртдошларимиз ҳам ўзларига, ҳам жамиятга наф келтиришяпти. Бироқ афсуски, даромад илн-жида қонуний талабларга зид хатти-ҳаракатлар ҳам содир этилмоқда. Термиз шаҳар “Тупроққўргон” маҳалласи худудида фаолият юритиб келаётган якка тартибдаги тадбиркор Максуд Сариев (исм-фамилиялар ўзгартирилган) қандолат маҳсулотлари ишлаб чиқариш цехини ташкил этиб, тижорат мақсадларида ўзбошимчалик билан электр

ҳисоблагичга таъсир ўтказгани фош этилди. У иккиламчи занжир схемасини ўзгартириб уланиб, 110 миллион сўмлик электр энергиясидан ноқонуний равишда фойдаланиб келаётганлиги аниқланган.
Текиннинг тиканаги бор, дейди донишмандлар. М.Сариев ноқонуний ҳаракати учун қонун олдида жавоб берадиган бўлди.
А.КОРАХОНОВ, Бош прокуратура ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг туман бўлими бошлиғи.

Qonunchiligimizdagi yangiliklar

Bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish darajasi oshiriladi

“2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish darajasini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 83-son Hukumat qarori 2025-yil 12-fevralda qabul qilindi. Qarorga koʻra, 2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish darajasini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi hamda 3-7 yoshi bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olishning maqsadli koʻrsatkichlari tasdiqlandi.
Shuningdek, quyidagilar tashkil etiladi:
aholining yashash darajasi va toʻlov qobiliyati yuqori boʻlgan (kambagʻal oilalar kam boʻlgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bogʻchalar;
olis va chekka (tuman va shaharlar markazida joylashmagan) mahallalarda oilaviy nodavlat bogʻchalar;
aholining toʻlov qobiliyati past (kambagʻal oilalar nisbatan koʻp boʻlgan) hamda demografik oʻsish darajasi yuqori boʻlgan mahallalarda davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bogʻchalar;
ijtimoiy soha muassasalarining boʻsh binolarida qisqa muddatli guruhlar.
2025-yil yakunigacha kambagʻal oilalar farzandlarini maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish taʼminlanadi.

Bekzod ISLOMOV, tuman adliya boʻlimi Davlat xizmatlari markazi direktori. Samarali davlat nazorati amalga oshiriladi

Davlatimiz rahbarining “Energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlariga qarshi kurashish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi PF-20-son Farmoni 2025-yil 10-fevralda qabul qilindi.
Farmonga koʻra, Prezidentining ayrim hujjatlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritildi:
yoqilgʻi-energetika resurslarini behuda sarflash hamda ulardan noqonuniy va samarasiz foydalanish holatlarini aniqlash;
sifatli yoqilgʻi mahsulotlari realizatsiyasiga chek qoʻyish borasida davlat nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini soddalashtirish.
Jumladan, Prezidentning 2023-yil 24-maydagi Farmoniga kiritilgan qoʻshimchaga koʻra:
elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (Oʻzenergoinspeksiya) tomonidan yoqilgʻi-energetika resurslarini qazib olish, ishlash chiqarish, qayta ishlash, tashish, saqlash, yetkazib berish (taqsimlash, sotish) va isteʼmol qilish faoliyati bilan shugʻullanadigan xoʻjalik yurituvchi subʼyektlarda ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi boʻyicha oʻtkaziladigan nazorat tadbirlari doirasida sutkaning istalgan vaqtida oʻtkaziladigan tekshiruvlar tekshiruv boshlangandan soʻng 24 soat ichida “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida roʻyxatga olish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida amalga oshiriladi.

Joʻrabek PARMONOV, tuman adliya boʻlimi Davlat xizmatlari markazi xodimi. Ortiqcha xarajatlari qisqartiriladi

Tadbirkorlarning vaqt va mablagʻ bilan bogʻliq ortiqcha xarajatlarini qisqartirish maqsadida 2025-yil 1-maydan tadbirkor tomonidan tan olingan soliqqa oid huquqbuzarliklar boʻyicha soliq organi tomonidan ushbu tadbirkorning banklardagi hisobvoraqlari boʻyicha operatsiyalarni toʻxtatib qoʻyish tartibi joriy etiladi.
Bunda, tadbirkorlik subʼyekti soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olmagan hamda soliq organi tomonidan oʻzining banklardagi hisobvoraqlari boʻyicha operatsiyalar toʻxtatib qoʻyilishiga eʼtiroz bildirgan taqdirda, ushbu masala amaldagi tartibga muvofiq soliq organi arizasiga asosan sud tomonidan hal etiladi.

Maxfirat RAXIMOVA, tuman adliya boʻlimi Davlat xizmatlari markazi xodimi. Noturur koʻchmas mulk: roʻyxatdan oʻtkazish yanada osonlashdi

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-noyabrda 795-son qaroriga asosan noturur koʻchmas mulkni boshqa shaxsga oʻtkazishga oid shartnomalarni rasmiylashtirish, unga boʻlgan huquqlarni davlat

roʻyxatidan oʻtkazish boʻyicha xizmatlar kompozit tarzda koʻrsatiladi. Xususan:
1. Ariza beruvchilar xizmatdan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga murojaat qiladilar;
2. Markaz ariza beruvchilarning shaxsini aniqlaydi va shartnoma ular tomonidan shaxsan imzolanganligini tasdiqlaydi hamda shartnomani Davlat kadastrlari palatasiga yuboradi;
3. Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalari koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazadi va davlat reyestrindan koʻchirmani Markazga yuboradi;
4. Markaz koʻchirma kelib tushgandan soʻng uni ariza beruvchilarning elektron manziliga yuboradi.

Yoqub CHORIYEV, tuman adliya boʻlimi Davlat xizmatlari markazi xodimi. Maʼmuriy sud ish yurituvdagi dastlabki eshituv instituti joriy etiladi

Qonunchilikka koʻra, maʼmuriy sudlar faoliyatiga quyidagi tartiblar joriy etiladi:
qarori, harakati (harakatsizlik) ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organi mansabdor shaxsi yoki uning vakili sud majlisida majburiy ishtirok etishini taʼminlash;
maʼmuriy sud ish yurituvdagi ishlarning tezkor va sifatli koʻrib chiqilishini taʼminlashga hamda fuqarolar va tadbirkorlik subʼyektlariga oʻz huquqlarini himoya qilish uchun qoʻshimcha imkoniyat yaratishga qaratilgan dastlabki eshituv institutini yoʻlga qoʻyish.

Xurshida OSONOVA, tuman adliya boʻlimi Davlat xizmatlari markazi xodimi. Uy-joylar qurilishi boʻyicha elektron platforma yaratiladi

Farmonga koʻra, qurilishga ulushdorlarning mablagʻlarini jalb qilish 2025-yil 1-iyuldan 2025-yil 31-dekabr gacha “eskrou” hisobvoraqlari orqali hamda hozirda amalda boʻlgan ulushli ishtirok etish tartibida toʻgʻridan-toʻgʻri jalb qilish mexanizmi boʻyicha parallel ravishda taraflarning tanloviga koʻra amalga oshiriladi.
Shuningdek, mablagʻlarini jalb qilish 2026-yil 1-yanvardan faqat “eskrou” hisobvoraqlari orqali amalga oshiriladi.
“Shaffof qurilish” axborot tizimi doirasida uy-joylar qurilishi boʻyicha elektron platforma yaratilib, 2025-yil 1-iyuldan toʻliq ishga tushiriladi.
2025-yil 1-iyulgacha ulushli shartnoma boʻyicha talab qilish va garov huquqlarini boshqa shaxsga oʻtkazishni nazarda tutgan holda ulushli shartnomalarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish va soliq organlariga elektron koʻrinishda taqdim etib borish tizimi joriy etiladi.
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida “Uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyilini amalga oshirish boʻyicha loyiha ofisi tashkil etiladi.

Xurshid ALIYEV, tuman adliya boʻlimi Davlat xizmatlari markazi xodimi. QQSning 50 foizi qaytarib beriladi

Oʻzbekiston Pesbublikasi Prezidentining “Chorvachilik va parrandachilikni qoʻllab-quvvatlash, sohada yuqori qoʻshilgan qiymat yaratish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-34-son qarori 2025-yil 30-yanvarda qabul qilindi.

Qarorga koʻra, quyidagilar tasdiqlandi:
2025-yilda qoʻshnt va sut ishlab chiqarish hajmining prognoz koʻrsatkichlari;
2025-yilda parranda qoʻshnti va parranda tuxumi yetishtirish hajmining prognoz koʻrsatkichlari;
2025-yilda hududlarda parrandachilik kooperatsiyasi tizimi asosida aholi bandlegini taʼminlash koʻrsatkichlari;
2025-yilda parranda mahsulotlarini eksport qilishning prognoz koʻrsatkichlari.

2025-yil 1-apreldan 2028-yil 1-yanvargacha chorvachilik va parrandachilik xoʻjaliklari tomonidan Davlat byudjetiga toʻlangan QQSning 50 foizini har oynning 25 sanasigacha qaytarish tartibi joriy etiladi. Parrandachilikning qoʻshnt va tuxum yoʻnalishida kooperatsiya tizimi asosida 1 million aholini ish bilan taʼminlash boʻyicha “Parranda boqish – daromad topish” loyihasi amalga oshiriladi.

Naschilik korxonalari uchun ularning asosiy faoliyat turi boʻyicha foyda soligʻi, mol-mulk soligʻi, yer soligʻi va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni 50 foiz pasaytirilgan stavkada toʻlash shaklidagi soliq imtiyozlarining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha uzaytiriladi.

Baxtiyor ALIYEV, tuman adliya boʻlimi Davlat xizmatlari markazi xodimi.



ВАТАН ДОВЮРАК ПОСБОНЛАРИГА СУЯНАДИ

Аждодларга муносиб бугунги Ватан ўғлонлари сарҳадларимиз дахлсизлиги, юртимизнинг тинчлиги, халқимизнинг фаровон турмушини таъминлаш йўлида камарбаста. Мустаҳкам мудофаа салоҳиятига эга бўлган бугунги Миллий армиямиз сафларида касбига фидойи бўлган аскар суержантлар ва офицерлар елкасидаги залворли ва машаққатли хизмат вазифаларини ситқидилдан бажармоқдалар. Улар туну-кун ўз постларида сергак ва хушёр. Айниқса, ДХХ чегара қўшинлари сафларида хизмат қилаётган «Элига қалқон-юртига посбон» алп қомат, мард, жасур ҳарбийларимизнинг хизматлари бениҳоя катта. Улар Ватан остонасининг илк чиқиқларида туриб, юрт кенгликларини ҳимоя қилишмоқда.

Наманган вилояти Поп туманида туғилган Лутфулло Мавжуталиевнинг ҳам болалик чоғлариданок ҳарбий бўлишдек шарафли касбини танлашга иштиёки баланд эди. Лутфулло 2001 йилда Поп туманидаги 6-умумий ўрта таълим мактабининг 1-синфига ўқишга борди. Мактабни аъло баҳоларга битириб, тумандаги алоқа-транспорт коллежида таҳсил олди. Ўқиб юрган кезларида ҳам тенгқур ўртоқларидан алоҳида ажралиб турарди. Билимга чанқок бу йигит доимо қалбини китобга ошно қилди. Билмаганларини устозларидан сўраб илм сирларини пухта ўрганди.

Лутфулло Мавжуталиев 2013 йил коллежни тугатгач, Поп тумани мудофаа ишлари бўлими томонидан мuddатли ҳарбий хизматга чақирилди. Йигитлик бурчини 2014-2015 йилларда Самарқанд вилоятдада жойлашган ДХХ Чегара қўшинларига қарашли ҳарбий қисмда ўтади. Шунда ҳарбийлик нақадар шарафли касб эканлигини яна бир бор дилдан ҳис қилди. Чунки ҳарбий қисм офицерлари ва сержантларининг хушмуомалалиги, бир оила даврасидагидек хизматдош



дўстлари билан ўтказган даврлар унинг қалбига тоабад муҳрланди десак, муболаға бўлмайди. Негаки, она Ватанини ҳимоя қилиш муқаддас бурч эканлигини теран анлаган ҳар бир ўғлон борки, албатта, унинг ҳимоясига отланади.

Лутфулло ҳам мuddатли ҳарбий хизмат давомида ҳарбий қасм раҳбариятининг ишончини оқлади. Берилган ҳар бир жанговар топшириқларни ситқидилдан бажаришга интилди. ҳарбий хизматни ўтаб бўлгач, 2015 йилда яна ҳарбийлик либосини кийиб шартнома асосида ишга қолди. Мана, бир

неча йиллардан буён ДХХ чегара қўшинлари сафларида хизмат фаолиятини олиб бормоқда.

Ўтган йиллар давомида кичик сержант Лутфулло Мавжуталиев ҳарбий қисмда квадратцикл гуруҳи командири лавозимида ишлаб келмоқда. У ҳар доим қўл остидаги ҳарбий хизматчиларга кенг билим ва тафаккурга, юксак профессионал ва маърифий-ахлоқий фази-

гуруҳ жамоаси муносиб иштирок этиб, бир қатор муваффақиятларга эришганини таъкидлаш жоиз.

–Бугун давлатимиз томонидан ҳарбийларимизга ғамхўрлик кўрсатиш устувор вазифалардан бири этиб белгиланган, - дейди биз билан суҳбатда Лутфулло Мавжуталиев. – Чиндан-да, Миллий армиямизнинг салоҳияти ва кудрати йил сайин ортиб бораёпти. Истиқлол эпкинлари юртимизга ўз тароватини кенг ёйган кунлардан бошлаб, мудофаа соҳасига катта эътибор қаратилди. Бизнинг ҳарбий қисмда ҳам ҳукуматимиз томонидан аскарлар, сержант ва офицерларимиз учун барча имкониятлар яратиб берилган. Тоғли чегара ҳудудларимизда ҳам шартшароитлар кўнгилдагидек. Эндilikда улар замонавий янги уй-жойлар билан таъминланган. Оилалари билан биргаликда чиройли ва шинам уйларда кўни-қўшинлари ила аҳил-инокликда яшаб келишмоқда. Мен ҳам турмуш ўртоғим Гулсанам Ҳасанова билан шириндан-шажар Муслима ва Меҳрибон исмли икки фарзандимизни тарбиялаб камол топтираяпмиз.

Ҳа, юртга қўрғон бўлиш олижаноблик. Ўз халқини ёвдан, ташқи кучлар таъсиридан ҳимоя қилишлик эса мард ва жасур ўғлоннинг она Ватани олдидаги муқаддас бурчидир!

Сайдулла ШОБЕРДИЕВ,
ДХХ Чегара қўшинлари хизматчиси.

Суратда: гуруҳ командири кичик сержант Лутфулло Мавжуталиев рафиқаси Гулсанам Ҳасанова ҳамда қизлари Муслима ва Меҳрибонлар билан.

So‘ragan edingiz

Nikoh tuzish tartibini bilasizmi?

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14-moddasida nikoh tuzish ixtiyoriy ekanligi, nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerakligi, nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanishi belgilangan.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning FHDYO organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o‘tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo‘lganda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, voyaga yetmaganning to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinishi – emansipatsiya) FHDYO organi bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Alohida hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar) nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.

Nikohni qayd etish muddatini uzaytirish nikoh tuzuvchilarning birgalikdagi arizalariga binoan ko‘rib chiqiladi. Ayrim hollarda yetarli asoslar bo‘lgan taqdirda, shuningdek, FHDYO organining tashabbusi bilan ushbu muddat uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

M.SIDIQOVA,

Termiz shahar FHDYO bo‘limi mudirasi.

Nikoh qayd etish uchun

qaysi FHDYO organiga murojaat qilish kerak?

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 212-moddasida Nikohni qayd etish, nikohlanuvchi shaxslar doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan joydan qat‘i nazar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikoh nikoh tuzishni xohlovchi shaxslar bu to‘g‘rida belgilangan namunadagi ariza bilan murojaat etgan kundan keyin bir oy o‘tgach ulardan birining yashash joyidagi FHDYO organi tomonidan qayd etiladi.

Alohida hollarda, istisno tariqasida (agar ota-onasi va nikohga kirayotgan yoshlar O‘zbekiston Respublikasining turli hududlarida yoxud uning tashqarisida yashab turgan bo‘lsalar) nikohlanuvchi shaxslarning iltimosi va otasi yoki onasining yozma arizasiga ko‘ra nikoh ota-onasining yoki ulardan birining yashash joyidagi FHDYO organida ham qayd etilishi mumkin.

M.FAYZULLAYEVA,

Termiz shahar FHDYO bo‘limi 2-toifali inspektori.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 16-moddasida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar keltirilgan. Bular:

loaql bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida;

nasi-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida;

loaql bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida yo‘l qo‘yilmaydi.

J.NE‘MATULLAYEVA,

Termiz shahar FHDYO bo‘limi 2-toifali inspektori.

Abilxairov Alisher Normuratovichga 2010-yil 4-avgustda berilgan «B, C» toifali AB № 092923 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo‘ qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

x x x

Choriyev Elbek Erkin o‘g‘liga 2021-yil 7-avgustda berilgan «B, C» toifali AF № 2897843 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo‘ qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

x x x

Choriyev Elbek Erkin o‘g‘liga tegishli 2023-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 75 S 739 RA bo‘lgan «Damas D 2» rusumli yengil avtomobilga 2023-yil 22-fevralda berilgan AAG № 1004214 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasi yo‘ qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

x x x

Normamatov Ilhomiddin Abdizoirovichga tegishli 2003-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 75 S 327 QA bo‘lgan «Tiko» rusumli yengil avtomobilga 2022-yilda berilgan AAG № 0224341 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasi yo‘ qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**



Соғлом никоҳ учун

Қандай талаблар қўйилади?

Оила қуриш учун энг қулай давр – қизлар учун 20-22 ёш, йигитлар учун 23-25 ёш. Аввало, йигит ва қизларимиз турмуш қуришдан олдин тиббий кўрикдан ўтишлари лозим. Улар ўзлари яшайдиган ҳудуддаги поликлиникалар, тиббиёт марказларидан маслаҳат олишлари ва бўлажак зурриётнинг саломатлиги ҳақида қайғуришлари керак. Бу ирсий касалликларнинг олдини олишда муҳим аҳамиятга эга.

Ирсий касалликларни келтириб чиқарувчи омилларга яқин қариндош-уруғлар ўртасидаги никоҳлар қиради. Бунда оилаларда кўпинча ақлий ва жисмоний нуқсонларга эга бўлган болалар туғилиши мумкин. Шунингдек, спиртли ичимликлар истеъмол қиладиган, тамаки кечувчи ва гиёҳвандликка ружу қўйган оилаларда туғма нуқсонли ва ақли заиф фарзандлар дунёга келиши эҳтимолдан холи эмас.

Ўсимрлар репродуктив саломатлиги ҳақида тўхталадиган бўлсак, масаланнинг кенг доираси тўғрисида ахборотларнинг мавжудлиги ёшларга ўз таналарини яхшироқ аңгашга ёрдам беради. Ўзаро алоқаларда тўғри йўл тутишига, бўлажак оилавий ҳаётга тайёrlанишига, шунингдек, ўз туйғуларини аниқлашга ва ўз

хатти-ҳаракатларини баҳолашга кўмаклашади.

Жинсий таълим қуйидаги асосий функцияларни ўз ичига олади, деб ҳисоблаймиз: -индивидни (шахсни) жисмоний, физиологик ва руҳий ўзгартишларга тайёрлаш; -кўрқув ҳиссини ва ўз танаси ҳақидаги нотўғри тасаввурларни енгмок; -муносабатлар моҳиятини тушунишга, жинсий муносабатларга ишонч ва уларни баҳолашга ўрганиш;

-ўз-ўзига ижобий ҳурмат ҳиссини ривожлантириш; -жинсий алоқаларнинг ноҳуш оқибатлари ва унинг олдини олиш тўғрисида маълумот;

-масъулиятни ечимларни танлаш ва қабул қилишга ўргатиш; -оналикка тайёргарлик. Эътироф этиш керакки, баъзилар тана манзарасига илк бор дуч келганларида хижолат тортиш ёки киноя ҳиссини бошдан кечирадилар. Бу ёшлар ўз таналарини қандай идрок этишлари, турли маданият ва динларнинг яланғоч танага нисбатан бўлган муносабатлари қандай деган суҳбатларга сабабчи бўлади. Тана тузилишининг мутаносиб гўзаллигига қаратилганда, масалан, танадаги ёғлар тақсимоти, балоғат ёшидаги бўй,

гавда тузилиши ва ҳоказолар.

Жисмоний этилиш масалаларига эътибор қаратилиши ёшларни хижолат қилмаслиги лозим. Қизлар туҳумдонларида минглаб туҳум ҳужайралар билан туғиладилар. Жинсий ривожланишда, одатда, ҳар ойда битта туҳум ҳужайра ажралади. Бу овуляция деб аталади ва бу ҳодиса ҳайз бошланишидан олдин содир бўлади. Бачадон ҳар ойда бўлажак ҳомиладорликка тайёр туради, унинг ички девори қалин ва юмшоқ бўлиб қолади. Агар ҳомила пайдо бўлмаса, бачадоннинг ички қатлами ҳамда

туҳум ҳужайра танадан кин орқали чиқиб кетади. Мана шу ҳодиса ҳайз деб аталади. Эрта ёшда ҳомиладор бўлиш туғиш жараёнида она ва боланинг соғлигига хавф солиши мумкин. Маълумки, 16-17 ёшгача қизлар тўлишиб, бўйлари ўсиб қолади, аммо бу ҳали уларни она бўлиш учун этилганликларини билдирмайди. Қизлар 16-17 ёшга тўлгани билан уларда ҳомилини тараққий этиши ва бола туғиш учун нормал шaroит вужудга келмаган бўлади. Тос суяклари ривожланмаганлиги сабабли, туғиш жараёнида жарроҳлик усулидан фойдаланишга тўғри келиши мумкин. Қизлар 20 ёшдан кейин жисмонан ва руҳан она бўлишга тайёр бўладилар. Эрта турмуш қуриш кўпинча фарзандсизликка, боланинг ойкуни етмай чала туғилишига сабаб бўлиши мумкин. Аёллар учун фарзанд қўришининг энг қулай даври 20-30 ёш оралиғи ҳисобланади.

А.ХУРСАНДОВ,
туман тиббиёт бirlашмаси бошлигининг оналик ва болалики муҳофаза қилиш масалалари бўйича ўринбосари.
Т.МАҲМАДАЛИЕВ,
республика саломатлик ва стратегик ривожланиш институтининг туман бўлими врачи.

Masala yechib evaziga million dollar olish mumkinmi?

Mumkin, matematikadagi hal etilmagan masalalar uchun mukofotlar ko‘pincha xalqaro matematik jamiyatlar yoki xayriya jamg‘armalari tomonidan e‘lon qilinadi. Clay Mathematics Institute (CMI) xususiy, notijorat fond bo‘lib, Shtetbrija, Massachusetts kemaidda joylashgan. Institut matematik bilimlarni oshirish va tarqatishga qaratilgan. U istiqbolli matematiklarga turli mukofotlar va homiyliklarni taqdim etad. Eng mashhur-laridan biri bu Millennium Prize Problems (Milleng yillik masalalari) bo‘lib, 2000-yilda CMI tomonidan e‘lon qilingan. Ushbu muammolar orasidagi har bir masalani yechish uchun 1 million AQSH dollari mukofot tariqasida va‘da qilingan va hattoki Fields, Abel medallari yoki Nobel mukofotlari olish mumkin.

1. Poincare gipotezasi. Yechimi 2003-yilda rus matematigi Grigoriy Perelman tomonidan isbotlangan. Perelman mukofot pulini qabul qilmadi, chunki u bunday e‘tirofni rad etishini bildirgan edi. Bu muammo topologiyaning asosiy masalaridan biri bo‘lib, uch o‘lchovli sferalar haqida edi. 2. Riemann gipotezasi. Holati: hali yechilmadi. Mavzu: kompleks sonlar va ularning asosiy sonlar bilan bog‘liqligi haqida fundamental gipoteza. 3. P vs NP masalasi. Holati: hali yechilmadi. Mavzu: hisoblash nazariyasi va algoritmlar samaradorligini aniqlash haqida. 4. Hodge gipotezasi. Holati: hali yechilmadi. Mavzu: algebraik geometriya va differensial geometriya orasidagi bog‘liqlik. 5. Navier-Stokes tenglamalari. Holati: hali yechilmadi. Mavzu: suv va havo oqimlarini ifodalovchi tenglamalarning yechimlari mavjudligini va barqarorligini aniqlash. 6. Birlashgan Mass gaplashuvi gipotezasi (Yang-Mills teoriya). Holati: hali yechilmadi. Mavzu: kvant fizikasi va dala nazariyasi bilan

Инсон ва қонун

Ҳуқуқбузарга жазо тайинланди

Олинган маълумотларга кўра, ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари томонидан деновлик Ш.Нигматовнинг «Cobalt» русумли енгил автомашинаси кўчада тўхтатилди. Улов эгасининг уст-бошидаги кийимлари ва автомашинаси холислар иштирокида синчковлик билан кўздан кечирилди. Не ажабки, автомашина олд йўловчи ўринидиги полигининг тагидан бир дона «Спички» ёзувли гугурт кутусига қадокланган яшил рангли, ўткир хидли 1,67 грамм марихуана гиёҳвандлик воситаси борлиги аниқланиб, ҳужжатлаштириб олинди.

Вилоят ички ишлар бошқармаси эксперт криминалистика бўлимининг тегишли хулосасига кўра, бу таркибида фаол тетрагидраканнабинол моддаси эканлиги аниқланган. Суд-наркология экспертизасининг хулосасига кўра эса Ш.Нигматовда эпизодик гашиш, марихуана истеъмол қилиш ҳолати борлиги, лекин унинг нарко-

логик хасталиклар билан касалланмаганлиги ва мажбурий тиббий давоLANишга муҳтож эмаслиги қайд қилинган.

Суд судланувчи Ш.Нигматовга нисбатан жазо тури ва миқдорини белгилашда Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 55-моддасига мувофиқ унинг айбига тўлиқ иқрорлигини, қилмишидан чин

кўнгилдан пушаймонлигини, муқаддам судланмаганлигини, оилали эканлигини, қарамоғида бир нафар фарзанди борлигини жазони енгиллаштирувчи ҳолатлар деб баҳолади. Шунга кўра, Жиноят кодексининг 56-моддасига мувофиқ унинг ҳаракатларида жазони оғирлаштирувчи ҳолатлар мавжуд эмас деб топиб, унга нисбатан айбланаётган модда санкцияси доирасида ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинлашни лозим топди.

Ҳуқуқбузар Ш.Нигматовга жиноят кодекси 276-моддасининг 1-қисми билан иш ҳақининг 20 фоизини давлат даромадига ушлаб қолган ҳолда 1 йил 6 ой мuddатга ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинланди.

А.БАКИРОВ.

Кутлов

Фидойи муаллима

«Ўқитувчининг бутун фахри ўқувчиларида, ўзи сочган уруғларнинг ўсишидадир», деган эди рус олими Д.Менделеев. Агар мактабимиз она тили ва адабиёт ўқитувчиси Дилором Абдурасуловна Фафурованинг бутун педагогик фаолияти давомида таълим бериб, ҳаётга учирма қилган ўқувчилари – шогирдларининг ўзи сочган уруғлари деб ҳисоблайдиган бўлсак, улар ўнтамас, юзта мас, мингтамас, балки ҳаёт майдонига сочилган беҳисоб ҳосилдор уруғлар, жамиятга кут-барака ёғдирадиган авлодлардир.

Яқинда тажрибали устоз муборак 60 ёшга тўлдилар. Таваддул кунларида Дилором Абдурасуловна бутун мактабимиз ўқитувчи ва ўқувчилари, шогирдлари, яқинлари ситқидилдан кутлаб, юксак иззат-икром кўрсатишди, совға-саломлар улашишди.

Дилором Абдурасуловна ўрта мактабни аъло баҳолар



билан битирганидан сўнг Термиз давлат педагогика институтининг филология факультетида ўқишни сиртдан давом эттирган ҳолда туманимиздаги 1-умумтаълим мактабига педагогик фаолиятни бошлаган эдилар. Мана, шундан буён ҳам орадан қирқ тўрт йил ўтибди. Бу йиллар замирида келажак авлодга таълим-тарбия беришдек заҳматли, аммо шарафли меҳнат, шогирдлар ка-

молини кўриш ва муваффақиятларидан чексиз қувониш каби ҳаяжонли дамлар кечмади дейсиз. Бугун шогирдларининг бари қўли кўксидида, эҳтиром билан ҳурматини жойига қўяди.

Малакали муаллима Дилором Абдурасуловнанинг бизнинг ўқув даргоҳимизда ишлаётганларига ҳам ўттиз йил бўлди. У кишининг ўз соҳасининг билимдонлиги, ташкилотчи ва талабчанлиги, касбига садоқати, ўз устиди мунтазам ва мукаммал ишлай билиши жамоамиз учун ўрнатқучи. Оиласи эса Наврўз маҳалласидаги намунали хонадонлардан. Турмуш ўртоғи – ҳамкасби (ҳозир пенсияда) Абдулҳамид Эшқобилов билан оилада 5 фарзанд – 2 ўғил, 3 қизни тарбиялаб вояга етказишди.

Ҳамкасбимиз Дилором Гафуровани кутлуг ёшлари билан муборакбод этиб, юбилейримизга мустаҳкам соғлиқ ва узоқ умр тилаймиз.

Гулнора ХОЛНАЗАРОВА,
14-умумтаълим мактабининг она тили ва адабиёт ўқитувчиси.

She'riyat

Bahor seni sog`indim, sog`indim seni

Tongda turib bog`ni kezdim, mayssa unibdimi deb.
Yoki qishning qahriga y ham ko`nibdimi, deb.
El so`raydi, - Ko`klamisiz ko`ngling sinibdimi? -deb.
Bahor seni sog`indim, sog`indim seni.

Qirlarni qizartguvchi lolalaring ko`rinmas.
Tog`dan oqib kelguvchi jolalaring ko`rinmas.
Varraklar uchirguvchi bolalaring ko`rinmas.
Bahor, seni sog`indim, sog`indim, seni.

Kelganingdan chulg`aydi dilni shirin xayollar.
Zulfiyanning izidan kelgan bir gulgun jamollar.
Bir kun qayta tug`ilib , qadr topar ayollar.
Bahor, seni sog`indim, sog`indim, seni.

Munojat NABIEVA, 26-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi.

Muhtarama aziz Ayollar, barchangizni yaqinlashib kelayotgan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami bilan tabriklab, kelgusidagi ishlaringizga omadlar tilayman! Qolgan tilaklarini ijod namunalarim orqali bildiraman.

Muhabbatli yurak

Mayli meni Majnun denglar, Tohir denglar,
Sevgisini ko`zlagan bir mohir denglar,
Alla qachon sevishgandir biz tengilar,
Muhabbatli yuragingni sog`inaman.

Zilol suvlar shoshmay oqar dengizlarda,
Atirgulda xazonreziy kech kuzlarda,
Muhabbatni unutmaydi hech bizlarda,
Muhabbatli yuragingni sog`inaman.

Allohimdan rahm so`rab nola qildim,
Bilmadim men muhabbatga nima qildim,
Muhabbatning nimaligin endi bildim,
Muhabbatli yuragingni sog`inaman.

Ko`rganimda mehr to`ldi ko`zlarimga,
Sog`ingandan so`z qo`shildi so`zlarimga,
Sening uchun bir gap aytay yuzlaringga,
Muhabbatli yuragingni sog`inaman.

Toza qalbim yolg`izlikni xohlamaydi,
Qancha ishqiy muhabbatlar bo`lsa, mayli,
Umri boqiy asiringman, misli layli,
Muhabbatli yuragingni sog`inaman.

Bahor fasli qizg`aldoqlar alvon-alvon,
Muhabbatim eshitganda, bo`lma hayron,
Seni ko`rsam, yurakkimay vayron-vayron,
Muhabbatli yuragingni sog`inaman.

Yo`ldosh ABRAYEV,
36-maktab o`qituvchisi.



Bahor keldi

Daraxtlar kurtak ochib,
Go`zal gullar ochilib,
Bulbullar sho`x sayrashib,
Yurtingga bahor keldi.

Yashil rangga kirib olam,
Ko`zing quvnatar har dam,
Odimalab shahd-la bardam,
Yurtingga bahor keldi.

Asal SHARIPOVA,
55-umumta'lim maktabining o'quvchisi.

Kelsang senga ergashib rizq-ro`zlar kirib kelar.
Tabiat jamolini ko`z- ko`zlab kirib kelar.
Sumalakni opichlab, Navro`zlar kirib kelar.
Bahor, seni sog`indim, sog`indim seni.

Seni qumsab yotibdi bu zaminning tuprog`i.
Sen muhabbat fasilan, sen mehning bulog`i.
Kelmasang dil bezovta tugamas uning ohi.
Bahor, seni sog`indim, sog`indim, seni.

Seni izlab sargardon, sahralarda el, bahor.
Qalbm yomon ichikdi, ko`z yoshlarim sel, bahor.
Nechun buncha kechikding, kelgin, bahor, kel, bahor.
Bahor seni sog`indim, sog`indim, seni.

Munojat NABIEVA, 26-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi.



Tabassumi go'zal qalbi yarolar

Yuzlari quyoshdek porlab turadi,
Lablarida doim kulgi barq urar.
Dunyoda hech qanday tashvishi yo`qday,
Tabassumi go`zal qalbi yarolar.

Ammo nigohlari o`ychan boqadi,
Ko`zlar ogoh etar tug`yonlarini.
Baxtdan so`zlaydi-da, asta xo`rsinar,
Qalbi yaro tabassumi go`zallar.

Aytolmaydi dardi dunyo qadarki,
Og`riqlar beriklar tabassum bilan.
Sarobga aylangan bo`lsa ham chin baxt,
Tabassumla boqar qalbi yarolar.

Umid

Balki erisharmiz baxtga sal kechroq,
Ammo umid borku bu ojiz qalbda.
Ko`zlarda, yuzlarda umid kuladi,
Ertaga ne bo`lar Alloh biladi.

Tutarmiz baxtning eng shirin sharobin,
Kuylaymiz eng go`zal qalb so`zlarini.
O`qiyimiz, ishlaymiz, duo qilamiz,
Alloh berar deya umid qilamiz.

Balki bu eng so`ngi so`zim ehtimol,
Diydor qiyomatga qolarmikan yo.
Mayli ne bo`lsa ham ey, aziz inson,
Har bir soniyangdan zavqlanib yasha.

Noila NORQUVATOVA,
28-maktabining 11-sinf o'quvchisi.

АДОЛАТ ИЗЛА

Худо кўрсатмасин оғир кунларни,
Ўзинг асра бизни ноҳақ тўхматдан.
Қил устиди турар зигирча ҳаёт,
Бало ёғилмасин осмондан, ердан.

Селдек адашманг адолатпешалар,
Инсон тақдири нақадар нозик.
Сиз одил ҳакам, эй ҳуқуқшунослар,
Одамини кемирам адолатсизлик.

Сўзласанг, жон дўстим, ўтмишдан сўзла,
Дунёда сахий бўл, адолат изла.
Осмонда учмагин, заминни кўзла,
Ҳақиқат эғилмас, асло унутма!

Керак эмас сен учун дабдабаозлик,
Кибрга берилма, қилгин мурувват,
Сен-ла фахрлансин, элу юрт, миллат,
Адолатсизлик бу – оташ, қиёмат.

Нормаҳмат МУҲАММАДИЕВ,
меҳнат фахрийси.

Xalqaro ona tili kuni nishonlandi

MILLIY O'ZLIK TIMSOLI, MA'NAVIYAT ASOSI

Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur.

Abdulla AVLONIY

YUNESKO tashkiloti tomonidan 21-fevral – “Xalqaro ona tili kuni” deb e'lon qilingan. Mazkur sana 2001-yildan buyon xalqaro miqyosda keng nishonlanib kelinmoqda. Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o'z milliy tafakkuri, ma'naviyati, ruhiyatining o'zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o'z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, bu bayram munosabati bilan har bir insonning o'z Vatani va o'z tiliga bo'lgan muhabbati, unga bo'lgan ehtiromi, qadrlash tuyg'ulari yangilanadi.

Ko'pgina tillarning yo'qolishi natijasi o'laroq, lingvistik xilmaxillik masalasi xavf ostida qolmoqda. Dunyo aholisining 40 foizi o'zlarini uchun tushunarli tilda ta'lim olish imkoniga ega emas. Shunga qaramay, ona tiliga asoslangan ko'p tilli ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar ham talaygina. Ayniqsa, maktabning boshlang'ich sinflarida tilning ahamiyatini tushunish va uning

ijtimoiy hayotda rivojlanishini takomillashtirish muhimligi masalasiga e'tibor kuchaymoqda.

Maktabimizda ushbu kun munosabati bilan “Ona tili – milliy o'zlik timsoli, ma'naviyat asosi” mavzusi doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbir amalga oshirildi. Unda fan o'qituvchilari va maktabning 5-6-7-sinf o'quvchilari faol qatnashishdi. Tadbirda so'z olganlar ta'kidlashdiki, ko'p tilli va ko'p madaniyatli jamiyatlar an'anaviy bilim va madaniyatlarni barqaror ravishda yetkazib beradigan va qashlaydigan tillari borligi uchun ham mavjuddir.

Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o'z milliy tafakkuri, ma'naviyati, ruhiyatining o'zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o'z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlar ekan, bu bayram munosabati bilan har bir insonning o'z Vatani va o'z tiliga bo'lgan muhabbati, unga bo'lgan ehtiromi, qadrlash tuyg'ulari yangilanadi.

O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi o'zining adabiy janriga ko'ra, qisqa hayotiy qissalarning jamlanmasi, ko'p hollarda insholar yig'indisiga qiyoslanishiga qaramasdan, ushbu “qissa” o'z ichiga nafaqat muallifning onasi haqidagi fikr-mulohazalari va ichki kechinmalari, balki zamoning, uning atrofidagi insonlarning ichki va tashqi ko'rinishlariga bag'ishlangan. Qissadagi “Ona” obrazi, muallifning faqatgina o'tgan voqealarni tasvirlash bilan chegaralanib qolgan yoki o'z onasi timsolida ideal ona obrazini tadbiiq etishga harakat qilgan, deb ta'kidlash o'quvchining asarni to'liq o'qib tushunchaga ega bo'la olinmagandir dalolat beradi. Muallifning onasi o'z harakatlari, qarashlari, fikr mulohazalari bilan aynan sharq ayoli obrazini to'liq tasvirlaganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Inson yaralishi bilan Alloh unga ota-onasini in'om etadi. Har bir insonning kamolotida, voyaga yetishida, tarbiyasida, xususan, onalarning hissasi kattadir. Ayniqsa, ona muhabbatining bolaning hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Zero, bola voyaga yetgunga qadar ona uning suyanchi, himoyachisi hisoblanadi. Shu sababli ham buyuk asarlarning kattagina qismi aynan onalarga, ayollarga bag'ishlangan. Mana shunday asarlar sirasiga o'zbek adabiyotida yaratilgan “Dunyoning ishlari” asarida ham onalar obrazini yanada go'zal so'zlar orqali yoritib berilganidir. O'tkir Hoshimovning ushbu qissasida ona qiyofasi son-sanoqsiz jilolari bilan

Ona bor, olam bor...

O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarida «Ona» obrazi talqini

tasavvuringizda namoyon bo'ladi. Muallif har bir hikoyasi yakunlanishi bilan o'qituvchi ushbu hikoyaga kichik parchalar qoldirib ketadi. Masalan, "yulduzlar to'la osmonga tiklaman. Ehtimol, osmondagi eng yorug' yulduzlar onalarning jonidir", "ilgari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi", "onalar farzandlari hamisha birga bo'lishini istaydi" va shu kabilar. Muallifning bu qissasini



Yurtimizda o'zbek tilini rivojlantirishga hukumat tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat tilining mavqeyini yanada oshirish uchun qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Bugungi kunda ona tilimiz jahon minbarlarida baralla yangrayotganligi har birimizga cheksiz g'urur va faxr baxsh etadi.

Til – insonni butun borliqdan ustun qilib turgan bemsiz qudrat, millatning qalbi, ruhi, o'tmishi, buguni, kelajagi, orzu va armonlari, millatning o'zi, o'zligi bo'lib, insoniyat rivojlanib borar ekan, til taraqqiyoti ham abadiydir. Tadbir bilan

hamohang tarzda o'quvchilar tomonidan tayyorlangan bir-biridan ajoyib dasturlar namoyish etildi. O'zbek, rus, tojik, turkman va boshqa tillarda she'rlar o'qildi, qo'shiqlar ijro etildi.

Muxtasar aytganda har bir millat o'z ona tilini ko'z qorachig'idek asrab-avaylayshi, e'zozlashi, yanada boyitishi zarur. Toki, kelgusi avlod uchun ona tilimiz sof, boyigun holda meros bo'lib qolsin.

Nodira XURSANOVA,
46-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

o'qigach, hayotga bo'lgan munosabatingiz keskin o'zgaradi. Bu asarda o'zbek xarakteri, o'zbek ayoli shunday chiroyli ochib berilgan. Misol tariqasida, qissaning “Ikki afsona” hikoyasida muallif onasining barvaqt turib, ko'cha supurib ishlaganini eslab o'tadi. Unda vaqt o'tgani sari akasining onasiga shu ishini qilmasligi haqidagi so'zlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Insonning halol mehnat qilib, peshona teri bilan hayot kechirishi dindand xabardorlik sifatida onaning har qanday halol mehnatning aybi

kechishga, kerak bo'lsa, uning o'rniiga o'zi ajalga tik qarashga tayyorligidan buni yaqqol ko'rish mumkin.

Asardagi hikoyalar turli voqealar bayoniga bag'ishlangan bo'lsa-da, ularda ona– Hakima aya obrazi tutashtruvchi ip bo'lib o'tadi, voqealar rivoji bevosita yoki bilvosita tarzda ona taqdiriga borib taqaladi.

Xulosa qilib aytganda, qissada ona qiyofasi keng va to'laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, ona haqida kimlar nima demagan. Dunyoda biror bir shoir yoki adib bo'lmasinki, ona haqida qo'shiq to'qimagan, kuylamagan bo'lsa.

Ona bor, olam bor; ona bor, odam bor; ona bor, Vatan bor, deyishadi. Chindan ham ona kabi tabarruk va aziz, ona kabi muqaddas va mehridaryo, ona kabi mard va jasur, ona kabi xokis kishi yo'qdir, onalarimiz berayotgan issiq tafti, ular berayotgan mehr har qanday narsadan ustundir.

Dilro'za JOVLBOYEVA,
Berdag nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek filologiyasi (tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi) fakulteti 3-kurs talabasi.

Мутахассис маслаҳати

Соғлом овқатланиш — саломатлик гарови

Соғлом овқатланиш – бу умумий саломатликни сақлайдиган ёки яхшилайдиган озۇқдир. У танани суоқлик, оксил каби макро элементлар, витаминлар каби микроэлементлар, етарлича озуквий тола ва озик-овқат энергияси билан таъминлайди.

Соғлом озик-овқатларга қуйидагилар: ловия, донли махсулотлар, гулкарам, қовун, макарон, нон, апельсин, курка гўшти, балиқ, сабзи, шолғом, қовоқ, нўхат, турп, сарсабил, ёзги қовоқ, ёғсиз мол гўшти, помидор ва картошка киради. Соғлом овқатланиш ўз ичига мевалар, сабзавотлар ва бутун донларни ва жуда оз миқдорда қайта ишланган (музлатилган, консерваланган) овқатлар ва ширин ичимликларни олиши мумкин.

Соғлом киши кунига 4-5 марта, овқатларни оралигини 5 соатдан оширмаган ҳолда таомларини энг оптимал саналади. Соғлом овқатларни қоидалари: фаоллик, тўғри нонушта, ўсимлик толалари, ёғлар ва шакарни меъёردа истеъмол қилиш.

Тўғри овқатланиш – соғлиқ ва саломатликнинг калитидир. Тўғри овқатланиш – бу танани барча зарур моддалар: оксиллар, ёғлар, углеводлар, витаминлар ва минераллар билан таъминлайдиган овқатланиш тизими. Тўғри овқатланишнинг мақсади соғлиқни сақлаш, касалликларнинг олдини олиш ва ҳаёт сифатини оширишдир. Тананинг турли хил озуквий эҳтиёжларини қондириш учун соғлом овқатланиш мувоzanатли ва хилма-хил бўлиши мумкин.

Овқатланиш – организмнинг ҳаёт фаолиятини таъминлаш, саломатлик ва иш қобилиятини сақлаб туриш учун зарур озик моддаларни ўзлаштириш жараёнидир.

Х.АХМЕТУЛЛАЕВА,
туман санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги хизмати бўлими озик-овқат бўлинимаси санитария врачлари ёрдамчиси.

MUZRABOT

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari
Muzrabot tumani Kengashi
va tuman hokimligi

Muharrir
Abdusalom YO'LDOSHEV

Tahririyat manzili:
191300. Muzrabot tumani, Xalqobod qo'rg'oni,
Amir Temur ko'chasi, 38-uy.
Telefon: (+998) 99 671 57 58.

Gazeta 2010-yil 9-aprelda Surxondaryo viloyati Matbuot va axborot hududiy boshqarmasida 11-010 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. ISSN 2181-7006.

e-mail: shaymardonov8787@mail.ru
Buyurtma G- 2320 nusxada bosildi. Oqog'och bichimi A-2. Hajmi 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Nashr indeksi-473.

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.
Sahifalovchi B.Shoymardonov. Navbatchi muharrir A.Yo'ldoshev.
Navbatchi O.Hakimova.

Gazeta «Surxon tongi» va «Zarya Surxana» gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 190100, Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy.
Topshirish vaqti – 14-00. Topshirildi – 14-00